



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 18-dekabr

731-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 14-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yo‘l harakati qoidalariga piyodalar xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 2024-yil 30-noyabrda 805-son qarori ijrosi haqida”gi 601-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yo‘l harakati qoidalariga piyodalar xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 2024-yil 30-noyabrda 805-son qarori va Namangan viloyat hokimining 2024-yil 14-dekabr da 601-6-0-Q/24-son qarorini tumanda ijrosini ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 14-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Sanoat korxonalarining atrof-muhitga salbiy ta‘sirini kamaytirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 30-noyabrda 805-son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 601-6-0-Q/24-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-aprelda 172-son qarori bilan tasdiqlangan Yo‘l harakati qoidalariga ilovaga muvofiq “Baland piyodalar o‘tish joylari” yo‘l belgisini hamda yo‘l yotiq chiziqlarini joriy qilishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi;

“Baland piyodalar o‘tish joylari” yo‘l belgisi hamda yo‘l yotiq chiziqlari shaharlar va boshqa aholi punktlarining ko‘chalarida, davlat va mahalliy ahamiyatga molik avtomobil yo‘llarining yoritilgan hamda yuqori tezlik soatiga 30 kilometrgacha cheklov joriy qilingan uchastkalarida, turar joy dahalaridagi ko‘rinish cheklangan chorrahalarda, bolalar maydonchalari hamda ta‘lim tashkilotlari oldidagi yo‘l uchastkalarida, ommaviy dam olish joylari, stadionlar, vokzallar, savdo markazlari va boshqa odam ko‘p to‘planadigan joylarda, ko‘chalarning 1.21. “Bolalar” yo‘l belgisi ta‘siridagi qismlariga o‘rnatilishi;

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Transport vazirligi va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan birgalikda ikki oy muddatda tahlillar asosida 2025-2026-yillarda “Baland piyodalar o‘tish joylari” yo‘l belgisi hamda yo‘l yotiq chiziqlarini o‘rnatish zarur bo‘lgan joylar ro‘yxatini tasdiqlashi;

begilanishicha, “Baland piyodalar o‘tish joylari” yo‘l belgisi hamda yo‘l yotiq chiziqlari shaharlar, viloyatlar, tumanlar markazlaridagi ko‘chalarda O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti Yo‘l harakati xavfsizligi xizmatining “Xavfsiz yo‘l va

xavfsiz piyoda” respublika jamg‘armasi hamda davlat va mahalliy ahamiyatdagi avtomobil yo‘llari, shuningdek, boshqa aholi punktlaridagi ko‘chalarda O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi faoliyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan o‘rnatilishi;

O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va Transport vazirligi bilan birgalikda ikki oy muddatda O‘z DSt 3403:2022 “Sun’iy notekisliklar. Umumiy texnik talablar”, O‘z DSt 3283:2022 “Yo‘l belgilari umumiy texnik talablar” O‘zbekiston Respublikasining davlat standartlariga ushbu qarorga muvofiq joriy etilayotgan “Baland piyodalar o‘tish joylari” yo‘l belgisi hamda yo‘l yotiq chiziqlari o‘rnatiladigan joylarning texnik ko‘rsatkichlarini nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishi belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman ichki ishlar bo‘limi (D.Karimov) tegishli tashkilotlar bilan birgalikda:

uch hafta muddatda tahlillar asosida 2025-2026-yillarda “Baland piyodalar o‘tish joylari” yo‘l belgisi hamda yo‘l yotiq chiziqlarini o‘rnatish zarur bo‘lgan joylar ro‘yxatini tasdiqlasin hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori talablari asosida ish tashkil etsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari X.Boylarov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov